



“MAKTABGACHA VA BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA AXLOQIY-ESTETIK TARBIYANI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” XALQARO ILMIY ANJUMANI



NAMANGAN 2024



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
MAKTABGACHA TA'LIM KAFEDRASI**

**"MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH TA'LIMDA AXLOQIY-ESTETIK
TARBIYANI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI"
MAVZUSIDAGI
XALQARO ILMIY ANJUMANI TO'PLAMI
2024-YIL 28-29 MAY**

**COLLECTION OF ARTICLES OF THE INTERNATIONAL
SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE DEDICATED TO THE
TOPIC: "PRIORITY DIRECTIONS FOR THE DEVELOPMENT OF MORAL
AND AESTHETIC EDUCATION IN PRESCHOOL AND PRIMARY
EDUCATION"
May 28-29, 2024**

**СБОРНИК СТАТЕЙ МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ
КОНФЕРЕНЦИИ, ПОСВЯЩЕННОЙ ТЕМЕ: « ПРИОРИТЕТНЫЕ
НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ НРАВСТВЕННО- ЭСТЕТИЧЕСКОГО
ВОСПИТАНИЯ В ДОШКОЛЬНОМ И НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ »**

28-29 мая 2024 года

NAMANGAN-2024

УДК.

Xalq maqollari yosh avlodning ma'naviyatini o'stirishda, nutq madaniyatining yuksalishida va barkamollahuvida milliy manbadir.

Kelajagimiz davomchilari – o'sib kelayotgan yosh avlod qalbida ona Vatanga sadoqat, ezgulik tuyg'ularini uyg'otish, ota-bobolarimiz merosi – milliy qadriyatlar, milliy an'analar, g'urur-iftixorni tarbiyalashda xalq maqollari alohida o'ringa ega.

Maqollar xalqning tarixiy tajribasida muhim tarbiya vositasi sifatida e'tirof etilgan. Ulardan kundalik hayotda tez-tez foydalanilib turiladi. Ayniqsa, oilaning katta a'zolari bolalarni yaxshilik, ezgulik, qanoat, ozodalik, mehnatsevarlik kabilarga undaydilar. Masalan,

«Tilga e'tibor – elga e'tibor», «Gapni oz so'zla, Ishni ko'p ko'zla», «Boshinga qilich kelsa ham, to'g'ri gapir» va xokazo. Maqol qisqa va lo'nda, obrazli, grammatik va mantiqiy tugal ma'noli hikmatli ibora, chuqur mazmunli gap bo'lib, u bolani mustaqil fikrlashga undaydi. Lo'nda va aniq fikr bayon qilishga o'rgatadi. Muayyan ritmik shaklga ega. Maqollarda avlod-ajdodlarning hayotiy tajribalari, jamiyatga munosabati, tarixi, ruhiy holati, etik va estetik tuyg'ulari, ijobiy fazilatlari mujassamlashgan. Asrlar mobaynida xalq orasida sayqallanib, ixcham va poetik shaklga kelgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» 2019 yil 3 maydagi PQ-4307-son qarori.

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Bolalarni milliy qadriyat ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida” 2020 yil 10 iyundagi 369-sonli Qarori.

5. Ma'naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug'ati. “G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi”. T; 2010. B. 707.

O'YINLARNING MAK TABGACHA YOSHDAGI BOLALAR NING HISSIY HOLATIGA TA'SIRI

Maripova Nodira Xamidovna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

“Maktabgacha ta'lism metodikasi” kafedrasiga katta o'qituvchisi

Shoraxmetova Dilshoda Qutbitdin qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti “Maktabgacha ta'lism” fakulteti talabasi

Orifxo'jayeva Mohiraxon Bahromxo'ja qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti “Maktabgacha ta'lism” fakulteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'yinlarning maktabgacha ta'lism yoshdagagi bolalarning hissiy holatiga ta'siri haqida so'z boradi.

Tayanch iboralar: his-tuyg'u, tarbiya, o'yinlar, faoliyat, didaktika, psixo-emotsional rivojlanish,

Maktabgacha ta'lism yoshidagi bolalarning ta'lism-tarbiyasida yetakchi faoliyat turiga o'yin kiradi. O'yin turlari xilma-xildir, bularga didaktik o'yinlar, erkin o'yinlar, sport o'yinlari, estafeta o'yinlari va hokazolar kiradi.O'yinlar orqali biz

maktabgacha ta'lim yoshdagi bolajonlarimizga ta'lim va tarbiyani amallga oshiramiz. Demak, ta'lim-tarbiyani jarayonida biz o'yinlarning maktabgacha yoshdagi bolalarning hissiy holatiga o'yinlarning kata ta'siri borligini e'tirof etishimiz mumkin.

O'yinlar maktabgacha yoshdagi bolalarning hissiy holatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ular nafaqat bolaning shaxsini rivojlantirish va tarbiyalash uchun, balki uning ruhiy holatini oldini olish va tuzatish uchun ham ishlatilishi mumkin.

Rus pedagogi Pletneyeva Elena Borisovnaning o'z maqolalarida his-tuyg'u va o'yin haqida shunday fikrlarni bildirib o'tgan : "O'yin-bu despotizm va kattalarning bosimidan xalos bo'lgan hayoliy dunyo, ko'chirilgan istaklarni kashf etish dunyosi, amalga oshirib bo'lmaydigan narsalarni amalga oshirish dunyosi" , A. S. Spivakovskaya.

Chin dildan quvonish, odamlarning his — tuyg'ulari va hissiy holatlarini tushunish, o'z xohish-istikclarini aniq ifoda etish va odamlar bilan muloqot qilish, san'at va hayot namoyonlarini qabul qilish qobiliyati-bularning barchasi bolaning hissiy jihatdan qanday shakllanishiga bog'liq. Maktabgacha yoshdagi bolaning hissiy sohasi qanday rivojlanganligi kichik odamning dunyonи anglashiga va u bilan muvaffaqiyatli o'zaro munosabatlarga ta'sir qiladi.

Tuyg'ular-bu insonning psixologik holatining o'ziga xos turi, ular kayfiyat va his-tuyg'ular shaklida namoyon bo'ladi. (quvonch, qayg'u, qo'rquv va boshqalar).

Hissiy ta'sir orqali tarbiyalash juda nozik jarayon. Maktabgacha yoshdagi bolaning o'yini turli xil his-tuyg'ular, hayrat, hayajon, quvonch va zavq bilan to'la. Bu o'yin faoliyatidan nafaqat bolaning shaxsiyatini rivojlantirish va tarbiyalash, balki uning ruhiy holatini oldini olish va tuzatish uchun ham foydalanish imkonini beradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning hissiy sohasini rivojlantirish xususiyatlari:

- ular hali o'zlarining his-tuyg'ularini, tajribalarini boshqara olmaydilar (0 dan 1 yilgacha)
- ular hissiyotlarning namoyon bo'lishining ijtimoiy shakllarini o'zlashtiradilar (1 yoshdan 3 yoshgacha)
- ularning his-tuyg'ulari ko'proq tafakkur va idrok bilan bo'g'liq bo'ladi (3-4 yoshgacha);
- maktabgacha yoshdagi bolalarda yuqori tuyg'ular shakllana boshlaydi (5-6 yoshdan boshlab-estetik, axloqiy, intellektual).

Maktabgacha yoshdagi bolaning hissiy rivojlanishining eng muhim tarkibiy qismi empatiyaning rivojlanishi, ya'ni hamdardlik va boshqa odamlarning tajribalari va his-tuyg'ularini tushunish qobiliyatidir. Empatiyani rivojlantirgan bola har doim u yoki bu odamning ichki holatini his qila oladi va unga yordam beradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda empatiyanı shakllantirish matabda muvaffaqiyatli o'qish, uning oson ijtimoiylashuvi, muammosiz muloqotining kaliti hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni hissiy jihatdan takomillashtirish bo'yicha quyidagi ikki yo'nalishdagi ishlarni amalga oshirishi kerak:

1. Tuyg'ularni ajrata olish va taqqoslash qobiliyatini shakllantirish: qiziqarli, zerikarli, qayg'uli, xotirjam, qo'rqinchli, qiziqarli va boshqalar;

2. Tuyg'ularni to'g'ri ifoda etish va boshqa insonlarning boshdan kechirgan his-tuyg'ularni to‘g’ri ajarta olish qobiliyatini shakllantirish.

Bolalarga hissiy ta'sirni quyidagi vositalar yordamida amalga oshirish mumkin:

- syujetli rolli o‘yinlar orqali;
- psixogimnastik o‘yinlar;
- harakatli o‘yinlar;
- erkinlikni rivojlantiruvchi o‘yinlar va vazifalar;
- tasavvurni rivojlantiruvchi o‘yinlar;
- o‘yin mashqlari;
- musiqa tinglash va uni muhokama qilish;
- ertaklar va hikoyalarni o'qish.

Yuqoridagi fikrlarga ko‘ra shunday xulosa qilish mumkin: qanday bo‘lmisin o‘yin turlarining barchasi maktabgacha ta’lim yoshdagi bolalarning his-tuyg’ulaini rivojlanishida katta o‘rni bor. Shunday ekan, o‘yinlarni tanlashda albatta maktabgacha yoshdagi bolalarning yoshini, xarakterli xususiyatlarni inobatga olish va muntazam ravishda ulardan foydalanish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Methodology for teaching the image of a portrait of preschool children

MN Khamidovna - Academic research in educational sciences, 2020

Cited by 1 Related articles All 2 versions

2. Возможности использования кластерного подхода в образовании дошкольников во взаимодействии семьи и махалли Н.Х.Марипова

Образование наука и инновационные идеи в мире Выпуск журнала №-38
Часть-1_ Февраль –2024

3. Maripova N.X. Innovatsion muhitda bo‘lajak tarbiyachilarni eksperimental faoliyatga tayyorlash. Ta’lim, fan va innovatsiya. 3-son, 2022-yil

4. Выготский Л.С. Психология развития ребенка. М.: Издательство Смысл, 2004 – 512 с.

5. Додонов Б.И. Эмоции как ценность. М.: Политиздат, 1978 – 272 с.

O‘QUVCHI- YOSHLARDA MA’NAVIY- AXLOQIY QADRIYATLARNI TARBIYALASHDA “MANAS” EPOSINING AHAMIYATI

Mirzatova Gulshoda Xudoyberdiyevna

Namangan davlat universiteti katta o‘qituvchisi

Gafforova Zulayho Umarjanovna

Qirg‘iziston Respublikasi, Jalal- Abad viloyati

46- sonli maktab o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘quvchi- yoshlarda ma’naviy- axloqiy qadtiyatlarni tarbiyalashda “Manas” eposidan foydalanish va uning ahamiyati haqida ma’lumotlar yoritilgan

Kalit so‘zlar: “Manas” eposi, madaniy meros, qahramonlik, mardlik, do‘stlik, hamjihatlik, insoniy fazilatlar, ma’naviy- axloqiy qadriyatlar

95.	1.M.A.Yakubova 2.Begimova Muxlisa	OILADA XALQ OG‘ZAKI IJODI NAMUNALARI VOSITASIDA FARZANDLARNI TARBIYALASH	396
96.	1.M.Usmanova 2.Sh.Mamadaminova	BOLALARNI XALQ OG‘ZAKI IJODI NAMUNALARI VOSITASIDA TARBIYALASHNING MAZMUNI	302
97.	1.Maripova Nodira Xamidovna 2.Shoraxmetova Dilshoda Qutbitdin qizi 3.Orifxo‘jayeva Mohiraxon Bahromxo‘ja qizi	O‘YINLARNING MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING HISSIY HOLATIGA TA’SIRI	305
98.	1.Mirzatova Gulshoda Xudoyberdiyevna 2.Gafforova Zulayho Umarjanovna	O‘QUVCHI- YOSHLARDA MA’NAVIY- AXLOQIY QADRIYATLARNI TARBIYALASHDA “MANAS” EPOSINING AHAMIYATI	307
99.	Muxtorova Umida Tolib qizi	AXLOQIY-ESTETIK RIVOJLANTIRISHDA ADABIYOTNING O’RNI TARBIYANI MILLIY	310
100.	H.Ж.Абдусаматова	МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАРНИ МА’НВАЙИ-АХЛОҚИЙ ТАРБИЯЛАШДА ШАРҚ МУТАФАККИРЛАРИ МЕРОСИДАН ФОЙДАЛАНИШ	314
101.	Odilova Maxliyoxon Doniyorjon qizi	HOZIRGI KUNDA O‘ZBEKISTONDA AXLOQIY-ESTETIK TARBIYANING SAMARALI VA TA’SIRCHAN USULLARI	317
102.	1.Усманова Зулфия Мусаевна 2.Иванова Елена Владимировна	АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ ЭСТЕТИЧЕСКОГО И НРАВСТВЕННОГО ВОСПИТАНИЯ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ	321
103.	Qanoatova Nazokat	BADIY ADABIYOT NAMUNALARI MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI MUSTAQIL FIKRLASHGA O’RGATISH ASOSI SIFATIDA	325
104.	Qayipnazarov Nurlan Baxitbay o‘g‘li	YOSHLARNI TARBIYALASHDA SPORT, MA’NAVIYAT VA QADRIYATLARDAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI	327
105.	Qodirov Umidjon Lapas o‘g‘li	BOSHLANG‘ICH TA’LIM O‘QISH DARSLARIDA SHE’R O‘QITISH	330